



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**NAMANGAN VILOYATIDA  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**

***Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-iyul***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 69-227-84-95***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yilning 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 316 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 88 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida tumanlarning chakana savdo tovar aylanmasi 11 765,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 110,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 868,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 135,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 896,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 960,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,7 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	11 765,3	110,3
Namangan shahar	4 769,5	115,9
tumanlar:		
Mingbuloq	367,0	105,7
Kosonsoy	519,4	106,7
Namangan	535,3	107,4
Norin	601,9	105,7
Pop	783,8	107,5
To'raqo'rg'on	832,0	108,7
Uychi	683,4	106,7
Uchqo'rg'on	540,1	106,1
Chortoq	554,1	107,9
Chust	974,6	106,1
Yangiqo'rg'on	604,2	106,1


2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan tumanlarning Namangan sh. (115,9 %), To'raqo'rg'on (108,7 %) va Chortoq (107,9 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyul)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024 yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil qildi.

## 2024- yil yanvar-iyul uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati **110,3 %** ni tashkil qildi.

*Ulushi, foizda*




Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 40,5 % bilan 4 769,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mingbuloq 3,1 % bilan 367,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*









## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 10 896,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Namangan viloyati miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,6 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 35,5 % ga o'sdi va 868,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,4 % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (99,2 %), Kosonsoy(98,7 %), Mingbuloq(98,0 %), Uchqo'rg'on(97,5 %) va Yangiqo'rg'on (96,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Namangan shahrida (11,0 %), Pop(8,1 %), Chortoq (7,9 %), To'raqo'rg'on (7,7 %), tumanlarnida kuzatildi.

7,4%

92,6%



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Namangan shahar

6 809,7

Yangiqo'rg'on

2 537,8

Mingbuloq

2 667,2

Kosonsoy

2 267,2

Namangan

2 764,9

Norin

3 410,0

Pop

3 312,8

To'raqo'rg'on

3 376,7

Uychi

2 926,7

Uchqo'rg'on

2 902,1

Chortoq


2 569,0

Chust

3 397,0

2024- yilning yanvar-iyul oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 819,3 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 107,9 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (6 809,7 ming. so'm), Norin 3 410,0 ming. so'm) va Chust (3 397,0 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyul), foizda




**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>980,7</b>	<b>119,0</b>
Namangan sh.	293,3	105,7
tumanlar:		
Mingbuloq	27,6	124,5
Kosonsoy	36,1	156,7
Namangan	32,1	110,3
Norin	82,2	115,4
Pop	73,2	148,6
To'raqo'rg'on	130,3	110,0
Uychi	44,8	160,3
Uchqo'rg'on	51,7	118,9
Chortoq	80,9	138,2
Chust	87,1	132,0
Yangiqo'rg'on	41,6	110,8


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi  
o'sish sur'atlari  
(2024- yil yanvar-iyul)**














**Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2024- yil yanvar-iyul)**



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 960,1 so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 113,7 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 980,7 mlrd. so'mni (119,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 979,4 mlrd so'mni tashkil etdi (108,8 %).













2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 980,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (497,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>497,0 mlrd. so'm</b>  <b>50,7 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>93,2 mlrd. so'm</b>  <b>9,5 %</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>127,9 mlrd. so'm</b>  <b>13,0 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>47,5 mlrd. so'm</b>  <b>4,8 %</b>	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>38,1 mlrd. so'm</b>  <b>4,2 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>33,8 mlrd. so'm</b>  <b>3,4 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>25,2 mlrd. so'm</b>  <b>2,6 %</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>50,1 mlrd. so'm</b>  <b>5,1 %</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>22,8 mlrd. so'm</b>  <b>2,3 %</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>20,6 mlrd. so'm</b>  <b>2,1 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>20,0 mlrd. so'm</b>  <b>2,0 %</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>4,5 mlrd. so'm</b> <b>0,5 %</b>

2024- yilning yanvar-iyul oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 979,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi – 885,8 mlrd.so'm, qo'y va echkilar –84,1mlrd. so'mni, otlar –6,0 mlrd. so'mni, parrandalar – 3,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>504,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>51,6 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>207,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>21,2 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>173,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>17,7 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>78,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>8,0 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>6,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,6 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>5,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,5 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>2,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,092 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,05 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,005 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,04 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,003 %</p>		



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yilning 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 170 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>335,6</b>	<b>108,1</b>
Namangan sh.	212,5	109,9
tumanlar:		
Mingbuloq	6,2	110,1
Kosonsoy	5,0	108,5
Namangan	17,1	86,6
Norin	5,0	111,1
Pop	15,3	133,7
To'raqo'rg'on	6,9	110,8
Uychi	4,1	110,0
Uchqo'rg'on	6,3	108,4
Chortoq	5,9	108,7
Chust	46,4	101,9
Yangiyo'rg'on	4,9	109,3

2024- yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 335,6mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,1% ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,6% ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2 087,9</b>	<b>101,2</b>
Namangan sh.	1 590,3	103,9
tumanlar:		
Mingbuloq	10,8	125,5
Kosonsoy	4,5	117,6
Namangan	22,0	123,5
Norin	17,9	118,0
Pop	79,6	134,3
To'raqo'rg'on	7,0	119,8
Uychi	24,9	123,7
Uchqo'rg'on	1,9	113,1
Chortoq	10,0	122,4
Chust	310,1	80,3
Yangiqo'rg'on	9,0	173,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Namangan shahri (1 590,3 mlrd. so'm), Chust (310,1 mlrd. so'm) va Pop (79,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)**




2024 yilning yanvar-iyul oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 087,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 622,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 117,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 417,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –95,2 %) tashkil qildi.

**Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda**



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 801,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,6 % ga o‘sd.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 5 328,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 78,3 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 508 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Namangan sh.(126,8), Chust(119,9), Norin (114,3) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>6 801,2</b>	<b>111,6</b>
Namangan sh.	4 400,9	115,3
tumanlar:		
Mingbuloq	183,6	75,2
Kosonsoy	124,1	96,4
Namangan	246,6	101,7
Norin	345,1	108,1
Pop	241,4	156,1
To‘raqo‘rg‘on	196,9	88,7
Uychi	196,9	91,5
Uchqo‘rg‘on	142,4	73,7
Chortoq	323,7	165,1
Chust	179,7	115,8
Yangiqo‘rg‘on	219,8	107,0